



**GEOGRAFIYA FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI MASOFAVIY TASHKIL
ETISH SHAKLLARI**

Baymuradova S.E.

Toshkent davlat pedagogika universiteti, Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchisi
Yakubova M.

Toshkent davlat pedagogika universiteti, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lism yo'nalishi
talabasi.

Annotatsiya: Maqlada geografiya fanini masofaviy o'qitishda mustaqil ta'limgni tashkil etish shakllari, mustaqil ish va mustaqil ta'limg tushunchalarining farqi, mustaqil ta'limgni tashkil etishda talabalarning qiziqishi, ehtiyoji va bilim darajalarini hisobga olish, o'quv faoliyati bilan bog'liqligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'limg, mustaqil ishni tashkil etish shakllari, mustaqil o'qish, masofaviy kurslar, individual, guruhli, ommaviy mustaqil ta'limg turlari va b.

Ma'lumki, oliy ta'limg muassasalari oldiga chuqur nazariy va amaliy kasbiy bilimlarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash vazifasi qo'yilgan. Shuning uchun, birinchi vazifa - oliy ta'limg muassasalari tizimini rivojlantirish, o'qitish sifatini oshirish va uning samaradorligini ko'tarishdan iborat. O'qitish samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri - talabalarning mustaqil ishslashga psixologik, nazariy va amaliy tayyorgarligidir. Biroq, talabalarning oliy ta'limgacha bo'lgan tayyorgarliklari jarayonida mustaqil ta'limg bilan ishslash imkoniyatlari va ko'nikmalari to'liq shakllanmaganligi bois, oliy ta'limg muassasasi o'qituvchisi talabalarda o'quv mexnat madaniyatini shakllantirish yo'li bilan ularning mustaqil ta'limgiga alohida e'tibor qaratib boradi. Bu bo'lajak mutaxassisga nafaqat Oliy ta'limg muassasasi o'qitish sharoitlariga moslashish, balki butun mexnat faoliyati mobaynida doimiy kasbiy o'sishiga imkoniyat beradi. Ushbu vazifani amalga oshirishning murakkabligi, o'quv jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish va talabalarning mustaqil ta'limgini tashkillashtirishda ilmiy asoslanganlik darajasi talab etiladi. Shu sohada amalga oshirilgan ko'pgina ilmiy ishlarning natijalari, talabalar mustaqil ta'limgini rejalashtirishda hajm bo'yicha va vaqt bo'yicha zaruriy tartib mavjud emasligini, o'quv jarayonining ushbu ko'rinishida foydali ish koeffitsientining juda pastligini ko'rsatmoqda. Talabalar mustaqil ta'limgini tashkil etishda, xar bir predmetni yil davomida, uni o'rganishga mo'ljallangan vaqt va materialni egallashning zaruriy darajasini e'tiborga olgan holda o'rganish uchun sarf qilinadigan vaqtini aniqlashdan boshlashadi.

Talaba mustaqil ta'limgining asosiy maqsadi - o'rgangan nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarini tizimplashtirish va mustahkamlash, nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, psixologik hamda pedagogik ko'nikmalarni rivojlantirish, kompetensiyalarni shakllantirish (xususiy va kasbiy), me'yoriy, huquqiy hujjatlar, ma'lumotlar va maxsus adabiyotlar bilan ishslashdan iboratdir.

Geografiya ta'limganda ham talabalarning mustaqil ta'limgini masofaviy tashkil etishda quyidagilarga alohida ahamiyat qaratish lozim:



- mustaqil ishning mavzusi, maqsadi va mazmunini tanlashni amalga oshirish;
- mavzuga doir maxsus adabiyotlar katologini shakllantirish;
- xorijiy adabiyotlardan foydalanish ko'nikmalari rivojlantirish (elektron kutubxona);
- axborot ta'lif muhitida subyektlar bilan o'zaro aloqani yo'lga qo'yish, internet tarmoqlari va manbalaridan keng foydalana olish (videokonferensiya, messender dasturlar, web-sayt, elektron pochta va h.);
- mavzuga oid muayyan muammo va vazifalar bo'yicha ma'lum yechimga kelish hamda uning optimal variantini tanlash uchun kerakli bo'lgan mustaqil fikrlash ko'nikmasi hosil qilish.

Shaxsning mustaqil ijodiy ishslash jarayonida shakllanib va mustahkamlanib boradigan mustaqil ta'lifni tashkil etish jarayoni ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan umumiy muammo sifatida o'r ganiladi. Jumladan, bu boradagi ishlarning bir qismida talabalarning mustaqil ta'lif olishlarini tashkil etishga shaxs nuqtai nazaridan yondoshish ko'zga tashlanadi. Bunda u faol, ta'limda, kasbiy mahoratini oshirishda yuqori natijalarga erishishga intiluvchi, pedagoglik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta'lif muhim omil sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'lif mustaqil fikrlash tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu o'rinda mazkur tushunchaga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish joiz: —Mustaqil fikrlash – insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir [3]. Talabalarda mustaqil ish bajarish ko'nikmalarini shakllantirishni turli o'quv predmetlarini o'qitishda amalga oshirish mumkin. Masalan, Geografiya o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ish mazmuni fan mazmuniga mos holda, talabalar mustaqil faoliyatini faol tashkil etishga, ularni oldiga qo'yilgan didaktik maqsadlarni bajarishga yo'naltirilgan va shunga maxsus ajratilgan vaqt tushuniladi. Shuningdek, mustaqil ta'lif jarayonida fanga oid bilimlarni qidirish, ularni anglab yetish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish, bilimlarini umumlashtirish, tizimlashtirish jarayoni tushuniladi.

Ayni vaqtida ilmiy va o'quv adabiyotlarda «Mustaqil ta'lif olish», «Mustaqil o'qish», —Mustaqil ish, tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanalmoqda. Ilmiy-tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili asosida bizningcha mustaqil ta'lif va mustaqil ishga quyidagicha ta'rif beriladi: Mustaqil ta'lif – mutaxassis yordamida yoki yordamisiz biror vazifa (masala, muammo) ni mustaqil o'rganish asosiga quriladigan o'quv faoliyati jarayonidir (mavzu yuzasidan topshiriqlar, refaratlar, maqola, tezislar tayyorlash, kurs va bitiruv malakaviy ishlari ustida ishslash jarayonida, malakaviy va dala amaliyotlari davomida olib boriladigan mustaqil faoliyatlar natijasida mustaqil ta'lif tarkib topadi). Mustaqil ish bu shunday ishki, bevosita o'qituvchi ishtirokisiz bajariladigan, lekin uni bajarishda, shu vaqt uchun maxsus taqdim etilgan, bunda talabalar ongli ravishda o'z maqsadlariga erishish, o'z kuchlaridan foydalangan holda va u yoki bu shaklda aqliy yoki jismoniy harakatlar natijasini ifodalaydi [4]. Mustaqil ish o'qituvchi ta'lif oluvchining fandan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini yanada kengaytirishga va takomillashtirishga qaratilgan faoliyat



turi hisoblanadi (ma’ruza, amaliy, laboratoriya va amaliy mashg’ulotlar davomida turli usullar yordamida bajariladigan faoliyatlardan mustaqil ish yuzaga keladi. Masalan, vaqtinchalik mikropreparat tayyorlash, konspekt qilish, rasm chizish, esse yozish va boshqalar). Mustaqil ta’lim topshiriqlari didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual èki jamoa uchun) mo’ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Mustaqil ta’lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliligi hamda o‘quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog‘liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek, beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir.

N.M.Zaborshikova mustaqil ta’lim yosh o‘qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirish sharoiti sifatida tavsiflaydi. Oliy ta’lim muassasasida mustaqil ta’limning tashkiliy shakllari quyidagicha:

1) Oliy ta’lim muassasasida fanlarni o‘zlashtirishda kasbiy faoliyatga tayyorlanish:

- A) ilmiy-nazariy tayyorgarlik
- B) pedagogik-psixologik tayyorgarlik;
- V) texnologik-informasion tayyorgarlik;

2) Masofaviy kurslar – seminar, konferensiyalar, olimpiadalar va boshqa tanlovlarga qatnashish;

3) Individual mustaqil ta’limni – ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-metodik va o‘quv adabiyotlarini o‘rganish, darsning turli nostandard shakllari ustida nazariy ishlar olib borish va dars ishlanmalar tayyorlash, mustaqil ta’lim jarayonida o‘zini va o‘zaro nazoratni yo‘lga qo‘yish kabilalar mustaqil ta’limi asosiy tashkiliy shakllari hisoblanadi [5].

Geografiya ta’limida mustaqil ta’limni masofaviy tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo‘lishi ham talab etiladi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, talabalarning geografik bilimlari qay darajada ekanligi, mustaqil ta’limning murakkablik darajasiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Mustaqil ta’lim talabaning o‘zi tomonidan boshqarilishini e’tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtida manbalardan o‘zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin [1]. Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish” nomli monografiyasida mustaqil ta’limni avtonomlik va hamkorlik xususiyatiga ega deb ta’riflaydi [2]. Geografiya ta’limida ham mustaqil ta’lim avtonomlik va hamkorlik xarekteriga ega hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu – geografik o‘qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va o‘qitish vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta’sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir. Hamkorlikdagi mustaqil ta’lim esa ko‘proq talabalarning kichik guruhlarda, komandada birgalikda bitta muammoni yechimini topish jarayonidagi mustaqil faoliyat olib borishda yuzaga keladi.

Mustaqil ta’lim, o‘quv faoliyatini tashkiliy shakli sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) mustaqil ta’lim maqsadining aniq belgilanishi;
- 2) aniq vazifalarning belgilanishi;
- 3) mustaqil ta’lim natijalarini ifodalash shakllarining aniqligi;
- 4) mustaqil ta’lim turlarini tekshirish usullarining aniqligi;



5) har bir talabaning berilgan topshiriqni bajarishi majburiyligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Mustaqil ta'limda talabalarning o'quv-bilish faoliyati 3 turda amalga oshiriladi: individual, guruqli va ommaviy.

- individual faoliyati: ma'lum muammo bo'yicha ilmiy-tadqiqotchilik ishlarni amalga oshirish referatlar, ma'ruzalar tayyorlash; ilmiy-metodik va o'quv adabiètlarin o'rganish; dars ishlanmalari loyihalash, o'quv topshiriqlari, didaktik materiallar tayèrlash asosida yuzaga chiqadi;

- guruqli faoliyati: auditoriyadagi o'quv-bilish, mashg'ulotlar, o'qitish mazmuni va metodlarini tashkillashtirish va auditoriyadan tashqaridagi malakaviy va o'quv dala amalièt davrida kuzatish ishlarni olib borish amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida;

- ommaviy faoliyati: auditoriyadan tashqari turli konferensiyalar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, tanlovlari, talabalar forumi, festivallar, loyihalarda ishtiroy etish davomida amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, geografiya fanini masofaviy o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish darslarda qo'llaniladigan metodlardan tashqari, o'qitish vositalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masofaviy texnologiyalar asosida mustaqil ishlarni tashkil etish modelini amalda joriy etish jarayonida o'qitish vositalari sifatida quyidagilar belgilash mumkin: kompyuter tarmoqlari, internetning ijtimoiy serverlari, institutning WEB-sayti, elektron pochta, o'qitishning texnik vositalari va boshqalar.

Shuningdek, mustaqil ta'limda tanlangan mavzuning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilinsa, samarali shakllari, vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Unda o'tiladigan mavzuning amaliyat bilan uzviylici, ilmiylici va o'quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimliligi, topshiriq hamda vazifalarning ko'p qirraliligi, o'zaro bog'liqligi muhim o'rinn tutadi. Ammo eng asosiysi, talabalarning mustaqil ravishda ta'lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga e'tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2006. – 80 b. 8-b.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: Fan, 2004. - 128 b.
3. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarini mustaqil fikrplashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ... ped.fan.dok. – Toshkent: O'zPFITI, 2004. – 261 b.
4. Джусоева К.Г. Организация самостоятельной работы студентов по осетинскому языку на неязыковых факультетах // Балтийский гуманитарный журнал. 2016. Т. 5. № 2 (15). С. 155-157.



5. Зaborщикова Н.М. Самообразование молодого учителя как условие совершенствования его профессиональной деятельности: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Л.: , 1989. - 29 с.